

XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI TASHQI SIYOSATI

Eshmonov Maxsiddin Yo`Idosh o`g`li

Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o`qitish metodikasi(Tarix) 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.d

G` Temirov

Annotatsiya: O`zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishganidan so`ng vatanimiz tarixini obyektiv va xolisona tadqiq qilish, tarixiy haqiqatni xalqimizga yetkazish yo`lida ulkan ishlar amalga oshirildi. Sho`ro davri va chor Rossiyasi tarixini yangidan tadqiq qilish, o`sha davr tarixiy adabiyotlarida tanqidiy nuqtai nazarida yondashib ish ko`rilishi barobarida samarali yutuqlarga erishilganligi sir emas.O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov: “Men sho`ro davrida yozib berilgan tarixni hisoblamayman, chunki o`zgalar yozib bergen tarix, hech qachon xolis bo`lmaydi.”¹, - deb ta`kidlaganlarida to`la haqli edilar.XX asr boshlarida Buxoro chor Rossiyasi yarim mustamlakasi hisoblangan demak, Buxoro tashqi siyosati bevosita ruslar bilan bog`liq bo`lganligi aniq lekin shunday bo`lsa ham boshqa hududlar bilan ham siyosiy jihatdan aloqa qilgan bo`lishi kerak.

Kalit so`zlar: Amir Abdulahad,Amir Olimxon,chevara,aholi tarkibi.Tarbiyayi Aftol.

Buxoro amiri huquqiy jihatdan mustaqil hukmdor sanalsa ham, haqiqatda rus podshosiga qaram edi. Amir va uning amaldorlariga qarshi xalq harakatlari podsho Rossiyasi qo`sishlari yordamida bostirilar edi. Amir Abdulahad rus podshosining general adyutanti hisoblangan. Uning davrida rus ma`murlari amirlikda katta imtiyozlarga ega bo`lgan. Amirlik yerlaridan o`tgan temir yo`l bo`ylariga rus aholisi keltirilib joylashtirildi. Buxoro -Afgoniston chegarasining muhofazasi bilan ham rus qo`sishlari shug`ullangan.Amirning o`g`li Said Olimxonga ham Hazrati Oliylari general-mayor unvonini bergen. ``Amir Olimxon Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlaridan mamlakat hududiga kirib kelayotgan ta`lim tizimiga oid o`zgarishlarga ijobjiy munosabatda bo`lib, dunyoviy fanlarni o`qitilishiga qarshilik qilmagan``².Shu o`rinda Amir Olimxon va u yuritgan ichki va tashqi siyosat haqida qisqacha o`z xulosalarimni bildirib o`tsam:Buxoro amirlari chor Rossiyasining sodiq xizmatkori sifatida mamlakatda ruslar manfaatiga zid keladigan biror bir yangilik qila olishmagan.Afg`oniston,Eron,Hindiston,Xitoy,Angliya,Turkiya bilan juda zaif diplomatiya saqlanib qoltingan, bu ham aslida ruslar nazaratida bo`lgan.Buxoro hukmdorlari ichida Olimxon davri o`zgarishlar davriga to`g`ri kelganligi bilan

¹ Karimov.I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. – Toshkent: O`zbekiston, 1998. T. 6. – B.75-76

² w.w.w, ziyo.com

bog`liq.Bir tomondan tashqi siyosat ruslar nazoratida,bir tomondan jadidlar yangi maktab va mamlakatni rivojlantirish uchun harakat qilishmoqda,bir tomondan oddiy xalq og`ir soliq va ruslar zulmiga qarshi sabr-kosasi to`lib borayotgan edi. Yana bir tomondan diniy muttasiblik kuchayib ketganligi natijasida aniq fanlar rivojlanishi ancha ortda qolgan edi.Natijada esa Buxoro rivojlanishdan tuxtab chet davlat qaramligiga tushib qolgan edi.Buxoro amirligi Amudaryoning sharqiy sohillaridan,ya`ni Rossiya Pomiridan to Xivaning Toshkent dashtlarigacha cho`zilib boradi.Rossiya bilan Buxoro amirligi o`rtasida bo`lgan urushdan oldin 1868-yili va bolsheviklar hukumati tasarrufida(1920) bo`lgan chog`da Buxoro amirligi shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh edi.G`arb tarafдан Sirdaryo bilan hamda Quqon xonligi yerlari bilan,janubdan esa Afg`oniston,sharqdan turkman o`lkasi va Xiva dashti bilan chegaradosh.Buxoro amirligi aholisi XX asr boshlarida 2,5-3 mln atrofida (ruslar bosib olishdan oldin 3-3,5 mln)Uning maydoni 225 000 km.Buxoro amirligi aholisining asosiy qismi o`zbek,turkman,qirg`iz,tojik,qozoq,yaxudiy va arablardan iborat.Mehnatkashlar Qashqadaryo,Surhondaryo,Zarafshon,Kofirnahang va G`iyshlar tevaragida dehqonchilik qilishgan. ``XIX- asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududiga Angliyaning e`tibori yanada kuchayishi va ular tomonidan Mir Izzatuloh,J.Trebek kabi vakillarini yuborilishi rus hukumatini ancha havotirga solib qo`ydi. Bunga javoban ruslar ham mintaqada savdo munosabatlarini va o`z ta`sir doirasini kengaytirish,rus savdogarlari uchun imkon qadar ko`proq imtiyoz va imkoniyatlarga ega bo`lish maqsadida Buxoro amirligi va unga qo`shni hududlarga o`z elchilarini yuborishga jiddiy e`tibor qarata boshladи``³.

Buxoro amirligi Xiva,Quqon,Afg`oniston,Eron,Xitoy bilan ham tashqi siyosat olib borgan,bu siyosat ko`pincha savdo-sotiq,fan sohalari bilan cheklangan.Buxoro amiri Afg`on amiri bilan yaxshi qushnichilik munosabatlarini o`rnatgan.Chor Rossiyasi va bolsheviklarga qarshi Afg`on amiridan harbiy yordam ham olib turgan.Bilamizki,usha davrda Angliya Afg`onistonga,Rossiya esa O`rtal Osiyoga siyosiy-hududiy jihatdan da`voda edi.Shunday holatda Buxoro amiri ruslar zulmidan qutulish uchun afg`onlar va ular orqali inglizlardan har tomonlama yordamlar olib turgan.Inglizlarni Buxoro amiri bilan keng diplomatiya o`rnata olmasligiga bitta sabab bor edi:Ingliz va rus shartnomasi(1870-1885).Bu shartnomaga ko`ra inglizlar afg`on bilan cheklanadi va O`rtal Osiyoga bo`lgan da`vosidan voz kechadi.Ruslar esa Buxoro,Xiva bilan cheklangan holda afg`on va Hindistonga hududiy da`vo qila olmas edi.Lekin shunday holatda ham baribir bu kelishuvga doimiy ham amal qilishmagan.Buxoro amiri Olimxonning Afg`on amiri va Ingliz hokimiyatiga elchi junatgani haqida ``Buxoro xalqining Hasrat tarixi`` kitobida quydagi voqelarni yozib qoldirilgan , `` Buxoro davlati mustaqillik olganidan so`ng do`stlik va oshnolik iplarini paydo qilish maqsadida :Buxoro davlati nomidan vazir To`raxo`ja va mullo

³ O`zbekiston tarixiga oid manbaa va tadqiqotlar(XIX-XX asr boshlari) monografiya/ma`sul muxarri:D.X. Ziyayeva.Toshkent;Nurafshon business,2022.-456 b

Qutbiddinlarni Afg`oniston davlatiga yubordim.Bu asnoda hoja Safarbiyni ham o`z namoyondam sifatida ingliz komissioniga ,Mashxadga yubordim. So`ng men bolsheviklarga Buxoroni bo`shatib qo`yishsin,degan fikrni bildirdim. Bolsheviklar mening iltimosimga qarshilik ko`rsatishdi,ular ingliz askarlari bilan ham jang qildilar.Bu borada Mirza Salimbek parvonachi va Abdurrauf karvонboshini ingliz askarlariga yo`l ko`rsatish uchun Chahorjo`y tomonga junatdim. Lekin ularning Chahorjo`yga kelishi paytida ingliz askarlari u yerdan jo`nab qolishgan ekan.Bu orada Afg`oniston davlati Britaniya davlatiga qarshi urush boshlab qo`ydi, keyin muqaddas Buxoroyi sharif davlatiga afg`on davlati tomonidan general Muhammad Valixonmuhtor vazir sifatida tashrif buyurdilar. U kishi zoti shohona bilan uchrashmoqchi bo`lib, afg`on amiri oliy xazratlaridan ko`pgina sovg`a-salomlar keltirdilar va bu bandayi ojizga topshirdilar.Men muhtor vazir bilan uchrashdim.Bu suhbat asnosida bandayi ojizga uning shaxsiy savoli ham bor edi, men uning javobini aytdim.Mening maqsad-niyatim shu ediki,men Bolsheviklarga qarshi urush qilsam,zero shu fursatda dushman nihoyatda zaif ekani ko`rinib turibdi Shuning uchun vaqtini g`animat bilish kerak, so`zsiz, bu-shunday, dedim. Muhtor vazir ancha aqli va uzoqni ko`ra oladigan shaxs hamda islam davlatining hayrixohi edi⁴. XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo davlatlari murakkab, notinch davrni boshdan kechirar edilar. Bu davrga kelib, Quqon xonligi qudrati kuchayib borayotgan edi. Buxoro amiri esa o`z mavqeini mustahkamlash maqsadida qo`shnilari bilan doimiy urushlar olib borar, Angliya bilan Rossiya o`lkaga ta`sirini mustahkamlash istagida o`zaro raqobatni davom ettirmoqda edi. Yuzaga kelgan vaziyat Xiva, Quqon xonliklari, Buxoro amirliklari Istanbul bilan elchilik aloqalarini davom ettirishiga ijobiy ta`sir qilgan. Rossiya bosqini xavfi to`g`risidagi havotirlarini bildirib, uni bartaraf etishda Usmoniylardan yordam so`raganlar. Usmoniylar davlati mamlakat ichkarisidagi siyosiy inqirozni bartaraf etish uchun kurashayotgan bir davrda O`rta Osiyo masalasiga e`tibor bermadi⁵. Turkiya-Buxoro amirligi munosabatlari XX asr boshlarida ham rivojlandi, ayniqsa, amirlik qulagandan keyin davlatni qayta tiklash uchun amir va qo`rboshilar tomonidan amalga oshirilgan harbiy janglarda turkiyalik Anvar poshshoning o`rni katta.

Elchilik missiyalari XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida xonliklar va Buxoro amirligi tarixiga bag`ishlab yozilgan ko`plab yirik asarlar muhim manbaa bo`lib hizmat qiladi. Bular bilan bir qatorda savdo karvonlari bilan xonliklarda bo`lgan rus savdogarları yoki tutqunlikda bo`lgan rus fuqorolarini bergen ko`rsatma, memuarlar, diplomatik missiya faoliyatiga oid rasmiy arxiv hujjatlari xonliklarning shu davrdagi ichki ahvoli, Rossiya bilan munosabatlari, o`zaro va qo`shni davlatlar bilan aloqalari haqidagi ma`lumotlarni yanada kengaytirdi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak Buxoro amirlari Chor Rossiyasiga qaram holatda faqat qo`shni davlatlar bilan siyosiy jihatdan mustaqil bo`lishi uchungina tashqi siyosat

⁴ A.S.Olimxon. Buxoro hasratlari tarixi. Fan nashriyoti. Toshkent-1991

⁵ Z.Rahmonqulova. "O`tmishga nazar" jurnali. XIX asr o`rtalarida Quqon va Xiva xonliklarining Usmoniylar davlati bilan diplomatik munosabatlari tarixi. 2022

olib borgan deyish mumkin.Ammo fan,madaniyat taraflama ham hamkorliklar davom etgan. Ayniqsa jadidlarimiz va Buxoro kelajagi uchun qayg`uradigan ziyoli qatlam vakillari tomonidan tuzilgan ``Tarbiyayi Aftol `` o`quvchilari va maktablardagi yoshlarni Germaniya va Turkiyaga o`qishga junatganlar.Ushbu yoshlar taraqqiy etgan davlatlarda o`qib kelib,Turkiston rivoji uchun xizmat qilishi kerak edi.Shunday bo`ldi ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A. `` Tarixiy xotirasiz -kelajak yo`q.-Toshkent.Sharq.1998.
2. Karimov I.A. O`zbekiston:milliy istiqlol,iqtisod,siyosat,mafcura.1-jild.Toshkent.Ozbekiston nashriyoti.1996,
- 3.Wekiwand.uz
- 4.Shosh.uz
- 5.w.w.w.ziyo.com
- 6.R.Shamsutdinov. Sh.Karimov ``Vatan tarixi``-Sharq.Toshkent 2010
- 7.A.S.Olimxon.Buxoro hasratlari tarixi.Fan nashriyoti.Toshkent-1991
8. O`zbekiston tarixiga oid manbaa va tadqiqotlar(XIX-XX asr boshlari) monografiya/ma`sul muxarrir:D.X. Ziyayeva.Toshkent;Nurafshon business,2022.-456 b
- 9.Xoliqova R.XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixidan lavhalar.
- 10.Rajabov Q. Muhammad Rahimxon -mang`itlar sulolasi asoschisi.Buxoro mavjilari.2005.